

BGI Group va O'zbekiston Sog'liqni saqlash va innovatsiyalarni rivojlantirish sohalari bo'yicha hamkorlikni

SHENZHEN, CHINA, January 31, 2024 /EINPresswire.com/ -- Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari Tashpulatov Farxodjon Muxammadjonovich o'z delegatsiyasi bilan BGI global shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va BGI Group o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Ushbu tadbirda BGI Group bosh direktori va ijrochi direktori Yin Ye, shuningdek, BGI Group kompaniyasining boshqa rahbarlari va O'zbekiston rasmiylari ishtirok etdi. Ikkala tomon ham sog'liqni saqlash sohasidagi tashabbuslarga hissa qo'shgan holda sog'liqni saqlash va iste'dodlarni tayyorlash bo'yicha o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga kelishib oldilar.

BGI Group kompaniyasining tarmoq korxonasi BGI Genomics direktori va bosh direktori Zhao Lijian O'zbekiston hukumati ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida O'zbekistonda o'smalarning oldini olish, asosiy yuqumli kasalliklar va boshqa jamoat salomatligini saqlash muammolari uchun BGI kompaniyasining ilg'or genomika vositalaridan foydalanishga intilishini ta'kidladi.

Yaqinda bo'lib o'tgan yana bir tadbirda BGI Group vitse-prezidenti Li Ning Shenchjen shahrida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan o'tkazilgan "O'zbekiston-Xitoy investitsiya forumi"da ishtirok etdi. BGI Group vakili sifatida u O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlik shartnomasini imzoladi. Ikkala tomon ham turli sohalarda, jumladan, ta'lim, qishloq xo'jaligi va ilmiy tadqiqotlarda hamkorlikni chuqurlashtirishda davom etadi. Ular innovatsion loyihalar va yechimlarni birgalikda o'rganadilar hamda O'zbekiston xalqiga yanada farovonlik olib kelish uchun genetik texnologiyalarni targ'ib qiladilar. Forumda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etdi.

Prezident Mirziyoyev iqtisodiyot, savdo, sarmoya va texnologik innovatsiyalar sohaslarida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida 23-25 yanvar kunlari Xitoyga uch kunlik davlat tashrifini amalga oshirdi. BGI Group e'tiborini jamoat salomatligi, aniq tibbiyot va iste'dodlarni rivojlantirishga qaratgan holda O'zbekiston bilan o'zaro faol almashinuv va hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. Bu sa'y-harakatlar O'zbekiston aholisi salomatligiga katta foyda keltirishi kutilmoqda.

BGI Group

[email us here](#)

Visit us on social media:

[Facebook](#)

[Twitter](#)

[LinkedIn](#)

This press release can be viewed online at: <https://www.einpresswire.com/article/685093068>

EIN Presswire's priority is source transparency. We do not allow opaque clients, and our editors try to be careful about weeding out false and misleading content. As a user, if you see something we have missed, please do bring it to our attention. Your help is welcome. EIN Presswire, Everyone's Internet News Presswire™, tries to define some of the boundaries that are reasonable in today's world. Please see our Editorial Guidelines for more information.

© 1995-2024 Newsmatics Inc. All Right Reserved.